

HUMANS SODIQLIK DASTURI

2025-yil 4-apreldagi tahriri

Ushbu Humans sodiqlik dasturi "HUMANS PAY" xizmatidan foydalanish qoidalari, "Humans Market" marketpleys qoidalari, Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarining ilovasi va ajralmas qismi bo'lib, "Humans" MChJ bilan, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 2b uy, STIR 306 624 856 va "Humans Trading" MChJ, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 2b-uy, STIR 310993793, telefon 1234 birgalikda (bundan keyin mos ravishda Humans va HT, birgalikda esa - HUMANS deb yuritiladi), nomuayyan shaxslar doirasiga yo'naltirilgan va Mijoz u bilan quyida bayon etilgan tartibda rozilik bildirgan paytdan boshlab Dastur Ishtirokchisi va HUMANS o'rtasidagi kelishuvga aylanadi.

1. ATAMALAR

- 1.1. **Aksiya** — Dastur doirasida Humans va/yoki HT tomonidan o'tkaziladigan, Ishtirokchilarning HUMANS va Hamkorlarga sodiqligini shakllantirish va oshirishga qaratilgan marketing va/yoki reklama tadbiri bo'lib, uning doirasida Ishtirokchiga muayyan harakatlarni (shartlarni) bajarganda Bonuslarni olish taklif etiladi. Aksiyani boshlash, uning shartlari, amal qilish muddatlari, chekllovleri to'g'risidagi qaror Humans va/yoki HT tomonidan bir tomonlama qabul qilinadi va saytda va (yoki) mobil ilovada joylashtiriladi.
- 1.2. **Bonus** — Aksiya doirasida va uning shartlariga muvofiq muayyan Humans va/yoki HT harakatlarini amalga oshirganligi uchun Ishtirokchining hisobiga HUMANS tomonidan belgilangan miqdordagi shartli birliklarni Keshbek sifatida berish.
- 1.3. **Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqidagi Shartnoma** — Ishtirokchi va Humans o'rtasidagi aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, Ishtirokchi tomonidan Saytda joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qilish orqali tuziladi
- 1.4. **Keshbek hisob** — HUMANS'dagi tahliliy hisob registri bo'lib, unda Ishtirokchiga taqdim etiladigan bonuslar va keshbeklar soni aks ettiriladi. Keshbek hisobi Ishtirokchining Humans va/yoki HT aksiyalari va rag'batlantirishlarida yoki ularning qo'shma aksiyalarida ishtirok etishi doirasida Ishtirokchiga taqdim etiladigan bonuslar va keshbeklarni hisobga olish uchun yagona hisoblanadi.

- 1.5. **Keshbek** — To‘lovni (Ishtirokchiga turli yuridik shaxslar / yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sotiladigan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlar uchun Bank kartasi orqali to‘lov) amalga oshirganlik uchun Ishtirokchining Keshbek hisobiga HUMANS tomonidan belgilangan miqdordagi shartli birliklarni berish.
- 1.6. **Hamkor** — Humans kompaniyasining "HUMANS PAY" mahsulotlar va xizmatlar vitrinasini xizmatidan foydalanish qoidalarida belgilangan atamaga muvofiq Hamkorni yoki "Humans Market" marketpleysi qoidalarida belgilangan atamaga muvofiq Sotuvchini anglatadi.
- 1.7. **Rag‘batlantirish** — HUMANS yoki Hamkor yoki Hamkorlar tomonidan sotiladigan mahsulotlar va xizmatlar, shu jumladan kelajakda sotilishi rejalashtirilgan, shuningdek, Ishtirokchi Keshbek hisobidagi mablag‘lar hisobidan olishi mumkin bo‘lgan Humans HUMANS yoki Hamkorlarning mahsulotlari va xizmatlariga chegirmalarga HUMANS’dan noyob taklif. Rag‘batlantirishni olish uchun zarur bo‘lgan keshbek va (yoki) bonuslar miqdori va Rag‘batlantirish turlari HUMANS saytida va (yoki) Mobil ilovasida belgilanadi.
- 1.8. **Bank kartasini bog‘lash** — bu Mijozning Mobil ilovada o‘z Bank kartasi (Bank kartalari) rekvizitlarini kiritish va mijozning O‘zbekiston Respublikasining istagan uyali aloqa operatori tomonidan unga ajratilgan mobil telefon raqamiga yuborilgan bir martalik kodni kiritish orqali tasdiqlash harakatlari .
- 1.9. **Dastur** — ushbu HUMANS Sodiqlik dadsturidir. Dastur Ishtirokchilarga Humans va HT hamkorligida taqdim etiladi.
- 1.10. **Dastur Ishtirokchisi (Ishtirokchi)** — o‘ziga tegishli Bank kartasini mobil ilovaga bog‘lagan Mijoz yoki Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaga tuzgan Mijoz yoki Ishtirokchi tomonidan qabul qilingan "Humans Market" marketpleysi Qoidalariga muvofiq xaridor bo‘lgan Mijoz.
- 1.11. Ushbu Dasturda ishlatiladigan boshqa atamalar Humans’ning “Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasini” servisining Qoidalarida yoki “Humans Market” marketpleysi Qoidalarida belgilangan ma’noda qo’llaniladi (qaysi biri qo’llanilishiga qarab).

2. DASTURA ISHTIROK ETISH

- 2.1. Humans’ning “HUMANS PAY” servisi Qoidalarini qabul qilgan va Bank kartasini Mobil ilovada bog‘lagan yoki Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaga tuzgan yoki Xaridor bo‘lgan har qanday Mijoz u tomonidan qabul qilingan “Humans Market” marketpleysi Qoidalariga muvofiq Dastur Ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Birinchi Keshbek yoki Bonus berilgan paytdan boshlab Ishtirokchiga Mobil ilovada aks ettiriladi.
- 2.2. Dasturda ishtirok etish bepul.

2.3. Bank kartasini Bog'lash va (yoki) Humans aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Sharhnomalar tuzish va (yoki) "Humans Market" marketpleysi Qoidalarini qabul qilish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish Ishtirokchining Dastur bilan to'liq va shartsiz rozilagini bildiradi.

2.4. Dasturda ishtirok etayotganda Ishtirokchi Aksiyalar shartlari, Mobil ilovada va (yoki) Saytda Bonuslar va Keshbekni hisoblash va ularidan foydalanish tartibi bilan tanishishi shart.

2.5. Dasturda ishtirok quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- "HUMANS PAY" servisi, "Humans Market" marketpleysi Qoidalariga muvofiq Servisning amal qilishi tugashi, agar HUMANS tomonidan boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- ushbu Dastur shartlariga muvofiq Ishtirokchi Dasturdan chiqarilib yuborilishi;
- Humans HUMANS tomonidan Dastur amal qilish muddati muddatidan oldin tugatilsa.

2.6. Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishi tugagandan so'ng, uning Keshbek hisobi yopiladi, to'plangan Keshbek va Bonuslari bekor qilinadi.

2.7. Mobil ilovada Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan barcha amallar Ishtirokchining shaxsan o'zining amallari hisoblanadi.

2.8. Keshbek va Bonus HUMANS'ning Mobil ilova va Servislar / HUMANS Xizmatlari tarqalishini oshirish maqsadidagi rag'batlantiruvchi tadbiри bo'lib, unga jismoniy shaxslar daromad solig'i solinmaydi.

3. KESHBEK VA BONUSNI TAQDIM QILISH TARTIBI

3.1. Humans Ishtirokchi tomonidan To'lov amalga oshirilish sharti bilan Keshbek taqdim qiladi, hamda Aksiya shartlarini bajarganida Bonuslar taqdim qiladi. Humans yangi Ishtirokchilar uchun Bank kartasini bog'lashda (salom Bonusi), aloqa xizmatlarini ko'rsatilishi to'g'risidagi Sharhnomalar tuzilganligi uchun Bonuslar ajratishi, hamda boshqa Bonuslar belgilashi mumkin.

3.2. Keshbek miqdori To'lov miqdoriga bog'liq bo'ladi, Bonus o'lchami – Aksiyaning aniq shartlariga bog'liq bo'ladi. Keshbek va Bonus miqdori Humans tomonidan bir tomonlama tartibda To'lov amalga oshirilgan kun Mobil ilovada, yoki aniq Aksiyaning shartlarida ko'rsatilgan harakatlar bajarilgan sanada belgilanadi.

3.3. Keshbek va Bonuslar HUMANS tomonidan To'lov amalga oshirilgan yoki Aksiya shartlari bajarilgan sanadan keyingi bir kun davomida taqdim etiladi. Belgilangan Keshbek va Bonuslar haqidagi ma'lumot Mobil ilovada aks ettiriladi.

3.4. Keshbek Ishtirokchiga quyidagi shartlar amalga oshirilganida taqdim etiladi:

- Ishtirokchi Hamkoriga Mahsulotni qaytarmagan yoki Hamkor Ishtirokchiga pul mablag'lari gaytarilishiga sabab bo'lgan boshqa harakatlar amalga oshirmagan. Agar Hamkor har gaysi asos

bo'yicha Ishtirokchiga Mahsulot uchun pul mablag'larini qaytargan bo'lsa, Keshbek hisoblanmaydi, va agar Keshbek hisoblangan bo'lsa-da, Keshbek bekor qilinadi. Bu shart HUMANS o'z xizmatlari uchun taqdim etgan Keshbeklariga ham tegishlidir:

- Ishtirokchi To'lov amalga oshirgan Hamkor To'lov amalga oshirilgan sanadagi Hamkor hisoblanadi;
- Keshbek taqdim etilgan vaqtida Dastur yoki Ishtirokchining Dasturda ishtiroki to'xtatilmagan;
- Keshbek taqdim etilgan vaqtida Mijoz tomonidan qabul qilingan, joriy kalendar oyida To'lovlarni amalga oshirgani uchun Keshbekning umumiy summasi 250 000 (ikki yuz ellik ming) dan oshmasligi kerak. Bunda Humans aksiya, qoidalar va shunga o'xhash hujjatlarga asoslanib, cheklovni oshirish huquqiga ega

3.5.Bonus Ishtirokchiga u Aksiya shartlarida belgilangan hamma harakatlar majmuini bajarganida taqdim etiladi. Agar Aksiya shartlari nafaqat Ishtirokchining o'zi, balki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan ham muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini nazarda tutsa, bunday uchinchi shaxslarning barchasi zarur harakatlar majmuini amalga oshirgan bo'ladi.

3.6.Humans HUMANS Ishtirokchi ushbu Dastur shartlarini yoki Humans'ning "HUMANS PAY" servisidan foydalanish Qoidalarini, "Humans Market" marketpleysi Qoidalarini, aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnomani har qanday tarzda buzgan taqdirda Keshbek va Bonusni taqdim etishni bir tomonlama tartibda rad etishga, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan qoidabuzarliklar sodir etilgani haqidagi shubhalar tekshirilgunga qadar Keshbek va Bonusni taqdim etishni to'xtatib qo'yishga haqli.

3.7.Keshbek va Bonus Ishtirokchiga Humans HUMANS tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadigan shartli "so'm" birliklarida (UZS, so'm) taqdim etiladi. Beriladigan Bonuslar pul mablag'lari, elektron pullar yoki pulning boshqa ekvivalentlari hisoblanmaydi.

4. KESHBEK VA BONUSNI QO'LLASH QOIDALARI

4.1. Ishtirokchiga taqdim etilayotgan Keshbek va Bonusni Ishtirokchi joriy Dastur qoidalariga muvofiq qo'llashi mumkin.

4.2. Keshbek va Bonusni HUMANS belgilagan va Ishtirokchini buyurtmasi sanasida olish mumkin bo'lgan Rag'batni olish uchun qo'llashi mumkin.

4.3. Keshbek va Bonus hisobidan olinishi mumkin bo'lgan Rag'batlar ro'yxati Saytda va (yoki) Mobil ilovada ko'rsatiladi. Rag'batni olish ro'yxati va shartlari Humans tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin.

4.4. Har bir Rag'bat bo'yicha Keshbek va Bonuslarni ma'lum miqdori belgilangan. Agar Ishtirokchini Keshbek hisobi summasi Rag'batni olish uchun yetarli bo'lmasa, Ishtirokchi uni olmaydi.

4.5. Keshbek va Bonuslar miqdori Rag'batni olishga yetarli bo'lsa, Ishtirokchi Mobil ilovadan foydalangan holda, aniq Rag'batni buyurtma qilishi mumkin. Bu holda Ishtirokchi Keshbek hisobi balansi mos ravishda kamayadi.

4.6. Agar Ishtirokchi Rag'batni qo'llash huquqidan foydalanishgacha undan Mobil ilovani mos interfeyslaridan foydalanishdan bosh tortsa,

Rag‘bat bekor qilinadi, va Rag‘bat uchun Keshbek va Bonuslar miqdori Ishtirokchini Keshbek hisobiga qaytariladi, agar Rag‘batni taqdim qilishni aniq qoidalarida boshqa harakatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa.

4.7. HUMANS avval buyurtma qilingan Rag‘batlardan bosh tortishini man qilishi mumkin.

4.8. Ishtirokchi o‘z Keshbeki va Bonusi bilan Dasturning boshqa Ishtirokchisi bilan bo‘lishishga haqli. HUMANS bunday o’tkazmalar shartlarini cheklashi mumkin, jumladan boshqa Ishtirokchiga o’tkazishi mumkin bo’lgan Keshbek va Bonusning eng kam va (yoki) eng ko‘p sonini. O’tkazma faqat mobil ilovada amalga oshiriladi.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIKHLARI

5.1. Tomonlar ushbu Dasturda ko‘zda tutilgan huquqlarga egalar va majburiyatlarini bajaradilar, jumladan ushbu bo‘limda quyida ko‘rsatilganlar ham.

5.2. HUMANS majburiyatlar:

5.2.1. Ishtirokchining Dasturga qo’shilishini ta’milashi shart, agar texnik imkoniyatlar bo‘lsa va Ishtirokchi Dastur talablariga rioya qilsa.

5.2.2. Mijoqlarga Dastur doirasida, jumladan muayyan Aksiyalar shartlarida belgilangan tartib va muddatlarda Keshbek va Bonus taqdim etishi shart.

5.3. HUMANS huquqlari:

5.3.1. o‘z xohishiga ko‘ra Aksiyalar, Rag‘batlarni o‘zgartirishi, qo’shishi, yo‘q qilishga haqli, shuningdek Aksiyalar, Rag‘batlar shartlarini, jumladan ularni o’tkazish muddatlarini Mijozni oldindan xabardor qilmasdan o‘zgartirishga haqli.

5.3.2. Ishtirokchining firibgarlik, noqonuniy amallar, va/yoki ushbu Dastur qoidalarini buzish harakatlarini o’rganib chiqish davrida yoki HUMANS nazarida boshqa holatlarda Keshbek va Bonus taqdim etish jarayonini, shuningdek Rag‘batlardan foydalanishni to‘xtatishga haqli.

5.3.3. Ishtirokchidan To‘lovning yakunlanganligi va Ishtirokchi harakatlarining yaxlitligini tasdiqlovchi hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rashga haqli. Ishtirokchi so‘ralgan hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rov olingen kundan boshlab 5 (besh) kundan kechiktirmay taqdim etishi shart.

5.3.4. Agar hujjatlarni ko‘rib chiqish va ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida HUMANS Ishtirokchi Dastur shartlarini buzganligi yoki Ishtirokchining harakatlarida huquqlarni suiste’mol qilish va noqonuniy xatti-harakatlar belgilari mavjud degan xulosaga kelsa, HUMANS qonunbuzarliklar aniqlangan to‘lovlar yoki aksiyalar bo‘yicha Ishtirokchiga Keshbek va Bonusni taqdim etishni rad etishga haqli, shuningdek Keshbek va Bonus taqdim etish to‘xtatilgan vaqt mobaynida amalga oshirilgan to‘lovlar va aksiyalar uchun. Bundan tashqari, HUMANS yuqorida ko‘rsatilgan hollarda Rag‘batlarni rad etish yoki ilgari berilgan Rag‘batni bekor qilish huquqiga ega.

5.4. Ishtirokchining majburiyatlar:

5.4.1. Ishtirokchi ushbu Dastur shartlari, Aksiya shartlari, To‘lovlarni amalga oshirish shartlari, Keshbek, Bonuslar, taqdim etilgan mukofotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, Keshbek va Bonuslardan foydalanish tartibini diqqat bilan o‘qib chiqishi, shuningdek, doimiy ravishda Mobil ilovada ilgari e’lon qilingan shartlarga o‘zgartirishlar to‘g‘risida ma’lumotlarni kuzatib borishi shart.

5.4.2. Ushbu Dasturning talablariga to’laqonli rioxaya qilishi shart.

5.5. Ishtirokchi huquqlari:

5.5.1. Dastur shartlari, undagi o'zgarishlar, Keshbek, Bonuslar, Tag'batlarni taqdim etish tartibi, Aktsiyalar shartlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni mobil ilovadan bilib olish, shu jumladan qo'llab-quvvatlash chatiga mobil ilovaning maxsus bo'limi orqali yoki saytdan olish.

5.5.2. Ishtirokchining huquqlari buzilgan taqdirda HUMANS'ga da'vo arizasi bilan chiqish. Da'vo Mobil ilovadagi qo'llab-quvvatlash chati orqali Ishtirokchining huquqlari buzilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida yuboriladi. Agar mijoz Keshbek, Bonus yoki Aksiya taqdim etilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida asoslantirilgan da'volarni taqdim qilmasa, u holda Keshbek, Bonus yoki Aksiya ushbu Shartlarga muvofiq yakunlangan hisoblanadi va Mijozning HUMANS'ga hech qanday qarshi da'volari yo'q deb hisoblanadi.

5.6. HUMANS javobgarligi:

5.6.1. Ushbu Dastur shartlarini buzganlik uchun HUMANS'ning javobgarligi bitta Ishtirokchiga nisbatan 500 000 (besh yuz ming) so'm miqdorida cheklangan..

5.6.2. HUMANS Servis doirasidagi majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, shuningdek, buning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lган zarar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchining yoki uchinchi shaxslarning axborot xavfsizligini yoki Dasturni tashkil etishda foydalanilgan HUMANS, hamkorlar yoki uchinchi shaxslarning jihozlarining normal ishlashini buzishga qaratilgan noqonuniy harakatlari, shu jumladan asossiz ravishda qo'shimcha Keshbek, Bonuslar va (yoki) Rag'batlarni olishga qaratilgan harakatlar;

- Mobil ilovaning ishlashidagi nosozliklar, koddagi xatolar, kompyuter viruslari va HUMANS uskunasining dasturiy ta'minotidagi boshqa begona kod parchalari;

- Hamkorlarning uskunalari va/yoki dasturiy ta'minotining ishlamay qolishi, shuningdek, Hamkorlarning boshqa harakatlari va/yoki harakatsizligi, buning natijasida HUMANS ushbu Dasturga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lган ma'lumotlarni olmaganida.

6. DASTURNING AMAL QILISHI

6.1. Ushbu Dastur u Saytda joylashtirilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Dasturning amal qilish muddati 31.12.2025 yilgacha.

6.3. HUMANS istagan vaqtida, shu jumladan muddatidan oldin Dasturni, shuningdek Aksiya va Rag'batlar shartlarini bir tomonlama o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega. HUMANS Saytda va (yoki) Mobil ilovada Ishtirokchilarni Dastur, Aksiyalar, Mukofotlar o'zgarishi yoki to'xtatilishi haqida xabardor qiladi.

6.4. Dastur, Aksiya va Rag'bat HUMANS tomonidan tugatish to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan sanadan boshlab tugatiladi.

6.5. Ushbu Dasturda tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.